



## VI. Transport 2025 yil yanvar-dekabr

- I. Yuk tashish va yuk aylanmasi
- II. Yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi
- III. Uslubiy ma'lumotlar
- IV. Foydali havolalar

### I. Yuk tashish va yuk aylanmasi

2025-yil yanvar-dekabr oylarida avtomobil transporti tomonidan **20,1** mln tonna yuk tashilgan bo'lib, o'sish sur'ati 2024-yilga nisbatan **101,2** % ni tashkil qildi.

Yuk aylanmasi avtomobil transporti turlari tomonidan **462,8** mln t-km ni tashkil etdi va 2024-yilga nisbatan o'sish sur'ati **111,9** % ni tashkil qildi.

#### Yuk tashish (2025 yil yanvar-dekabr)

	Hajmi	O'sish sur'ati, % da
Tashilgan yuk, mln t	20,1	101,2
Yuk aylanmasi, mln t-km	462,8	111,9

#### Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

##### Tashilgan yuklar hajmi

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning avtomobil transportining yuk aylanmasining o'sish sur'ati 2024-yilga nisbatan **111,6** % ni tashkil etdi va **409,4** mln t-km ga yetdi. Yuk aylanmasining umumiy hajmida hususiy yuk tashuvchilarning ulushi **88,5** % ni tashkil etdi (2024-yilda **88,7** foiz).

Sirdaryo viloyatining shahar va tumanlar bo'yicha tashilgan yuk bo'yicha yetakchi o'rinni Guliston shahri (**3 631,8** ming tonna) egallaydi. Shu bilan birga, eng yuqori tonnani Sayxunobod (**2 989,7** ming tonna) va Sirdaryo (**2 809,2** ming tonna) tumanlarida kuzatildi.




Shahar va tumanlar kesimida yuk tashish, *ming tonna*  
2025-yilning yanvar–dekabr

	Hajmi, ming tonna	Ulushi, %	O‘shish sur‘ati, %
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>20 065,4</b>	<b>100,0</b>	<b>101,2</b>
<i>shaharlar:</i>			
Guliston	3 631,8	18,1	102,3
Shirin	782,6	3,9	98,7
Yangiyer	1 585,2	7,9	100,0
<i>tumanlar:</i>			
Boyovut	1 464,8	7,3	102,6
Guliston	1 484,8	7,4	101,2
Mirzaobod	2 387,8	11,9	100,4
Oqoltin	682,2	3,4	98,3
Sardoba	461,5	2,3	101,2
Sayxunobod	2 989,7	14,9	100,5
Sirdaryo	2 809,2	14,0	101,9
Xovos	1 785,8	8,9	102,4

Ko‘rsatilgan yuk tashishda yuqori bo‘lmagan ko‘rsatkichlar Sardoba (**461,5** ming tonna) va Oqoltin (**682,2** ming tonna) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

2025 yilning yanvar-dekabr oylarida transport turlari yuk aylanmasining jami hajmi **462,8** mln tonna-km (o‘shishi **11,9** %)ni tashkil etdi.

### Avtomobil transportida yuk tashish va yuk aylanmasining o‘shish sur‘atlari (2025 yil yanvar-dekabr)



**Taqqoslash uchun:** 2024 yil yanvar-dekabr oylarida avtomobil transporti yuk aylanmasining o‘shish sur‘ati **117,0 %** ni tashkil etgan. Avtomobil transportida tashilgan yuklar hajmi **19,8 mln tonna**, ya‘ni, 2023 yilning yanvar-dekabriga nisbatan **-1,3 %** ga pasayish qayd etilgan.

## II. Yo‘lovchi tashish va yo‘lovchi aylanmasi

2025 yilning yanvar-dekabr oylarida barcha transport turlarida yo‘lovchi tashish ko‘rsatkichi 2024 yilning mos davriga nisbatan **4,2 %** ga o‘shib, uning hajmi **98,1 mln** nafar yo‘lovchini tashkil etdi.

	Hajmi	O‘shish sur‘ati, % da
Transportda tashilgan yo‘lovchilar, mln kishi	98,1	104,2
Yo‘lovchi aylanmasi, mln yo‘lovchi-km	2 901,5	103,4

### Mavzuga doir ko‘rsatkichlar: [Tashilgan yo‘lovchi soni](#)

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning avtomobil transportining yo‘lovchi aylanmasining o‘shish sur‘ati 2024-yilga nisbatan **103,0%** ni tashkil etdi va **2 855,4** mln t-km ga yetdi. Yo‘lovchi aylanmasi umumiy hajmida hususiy yo‘lovchi tashuvchilarning ulushi **98,4 %** ni tashkil etdi (2024-yilda **98,8** foiz).

Sirdaryo viloyatining shahar va tumanlar bo‘yicha tashilgan yo‘lovchi bo‘yicha yetakchi o‘rinni Guliston shahri (**22 374,6** ming kishi) egallaydi. Shu bilan birga, eng yuqori tonnani Sirdaryo (**20 509,9** ming kishi) va Boyovut (**9 911,5** ming kishi) tumanlarida kuzatildi.



Hududlar kesimida yo'lovchi tashish, *ming kishi*  
(2025-yil yanvar–dekabr)

	Hajmi, ming kishi	Ulushi, %	O'sish sur'ati, %
Sirdaryo viloyati	98 133,7	100,0	104,2
<i>shaharlar:</i>			
Guliston	22 374,6	22,8	106,0
Shirin	2 060,8	2,1	104,2
Yangiyer	7 654,4	7,8	105,5
<i>tumanlar:</i>			
Boyovut	9 911,5	10,1	103,2
Guliston	5 495,5	5,6	102,3
Mirzaobod	9 028,3	9,2	103,1
Oqoltin	3 532,8	3,6	101,4
Sardoba	3 925,3	4,0	101,6
Sayxunobod	6 280,6	6,4	102,6
Sirdaryo	20 509,9	20,9	105,2
Xovos	7 360,0	7,5	102,8

Ko'rsatilgan yo'lovchi tashishda nisbatan uncha yuqori bo'lmagan ko'rsatkichlar, Shirin shahri (2 060,8 ming kishi) va Oqoltin tumani (3 532,8 ming kishi) hissasiga to'g'ri keldi.

### III. Uslubiy ma'lumotlar

**Transport statistikasi** – transportda sodir bo'ladigan hodisalar va jarayonlarni o'rganadigan statistika sohasidir. Transport statistikasi ko'rsatkichlari transportning alohida turlari bo'yicha ma'lumotlarni: temir yo'l, avtomobil, shahar elektr, quvur yo'li va havo ma'lumotlarini o'z ichiga oladi.

**Yuk tashish (yuk tashish hajmi)** – transport orqali tashilgan yuklarning tonnalardagi miqdori (pullik bagaj va pochmani qo'shgan holda). Ko'rsatkich transport turlari, qatnov, yuk turlari bo'yicha hisobga olinadi. Yuklarni tashish jarayonining dastlabki daqiqasi “jo'natilgan yuklar (jo'natish)” ko'rsatkichi bilan aks ettiriladi, yakuniy nuqta – “kelib tushgan yuklar (kelib tushishi)” ko'rsatkichi hisoblanadi.

**Tashilgan yo'lovchilar** – ma'lum vaqt davomida avtomobil vositalarida turli qatnov turlari bo'yicha tashilgan yo'lovchilar soni (statistik kuzatuv birligi bo'lib yo'lovchi-qatnovi hisoblanadi).

**Yo'lovchi aylanmasi** – transportning yo'lovchi tashish bo'yicha ish hajmi. O'lchov birligi yo'lovchi-kilometr hisoblanadi. Har bir tashish bo'yicha yo'lovchilar sonini tashish masofasiga ko'paytmasini yig'indisi orqali aniqlanadi. Qatnov turlari va boshqa belgilar bo'yicha alohida hisoblanadi.

**Yo'l-transporti hodisasi** – transport vositasining yo'ldagi qatnovi jarayonida sodir bo'lib, fuqarolarning o'limi yoki ularning sog'lig'iga zarar yetishiga, transport vositalari, inshootlar, yuklar shikastlanishiga yoki boshqa tarzda moddiy zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan hodisa.

**Aloqa statistikasi bu** – aloqa kabi iqtisodiy sektorning ommaviy jarayonlari va hodisalarini o'rganadigan statistika fanining bir tarmog'idir.

### 5. Foydali havolalar

[Transport statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish bo'yicha uslubiy nizom](#)

[Avtomobil transporti faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarini aniqlash bo'yicha uslubiy nizom](#)

[Aloqa va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish bo'yicha uslubiy nizom](#)